



YAPON VA INGLIZ TILLARIDA INKOR YASOVCHI AFFIKSLAR: QIYOSIY LINGVISTIK TAHLIL

Ilhomova Nozima

O'zDJTU Sharq filologiya fakulteti

FYAP 2410-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon va ingliz tillarida inkor yasovchi affikslar – prefiks va suffikslarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida yapon tilidagi 不 (fu), 無 (mu), 非 (hi) prefikslari hamda ingliz tilidagi un-, in-, dis-, -less affikslarining so‘z yasalishidagi o‘rni, ma’no shakllantirishdagi roli va grammatik xususiyatlari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Shuningdek, ushbu affikslarning qo’llanish chegaralari, bir-biriga o‘xhash va farqli tomonlari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari yapon va ingliz tillaridagi inkor shakllarining lingvistik tizimidagi o‘rnini aniqlashga hamda ularning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yapon tili, ingliz tili, inkor affikslari, qiyosiy tilshunoslik, semantika, 不 (fu), 無 (mu), 非 (hi), un-, in-, dis-, -less

Abstract: This article analyzes the linguistic features of negation-forming affixes—prefixes and suffixes in Japanese and English. The study examines the role of Japanese prefixes 不 (fu), 無 (mu), 非 (hi) and English affixes un-, in-, dis-, -less in word formation, their semantic impact, and grammatical characteristics from a comparative perspective. Additionally, the research explores the scope of usage, similarities, and differences between these affixes. The findings contribute to identifying the position of negation structures in the linguistic systems of Japanese and English, highlighting their commonalities and distinctive features.

Key words: Japanese language, English language, negative affixes, comparative linguistics, semantics, 不 (fu), 無 (mu), 非 (hi), un-, in-, dis-, -less

Аннотация: В данной статье анализируются лингвистические особенности аффиксов, образующих отрицание, – префиксов и суффиксов в



японском и английском языках. В исследовании рассматривается роль японских префиксов 不 (fu), 無 (mu), 非 (hi) и английских аффиксов un-, in-, dis-, -less в словообразовании, их семантические функции и грамматические характеристики в сравнительном аспекте. Также изучаются особенности их употребления, сходства и различия. Результаты исследования способствуют определению места отрицательных аффиксов в языковых системах японского и английского языков, выявляя их общие и специфические черты.

Ключевые слова: японский язык, английский язык, отрицательные аффиксы, сравнительная лингвистика, семантика, 不 (fu), 無 (mu), 非 (hi), un-, in-, dis-, -less.

Hozirgi davrda tilshunoslikda so‘z yasalishi va negatsiya (inkor) jarayonlari muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Inkor yasovchi affikslar turli tillarda yangi so‘zlarni shakllantirish, semantikani o‘zgartirish va grammatik tuzilmani ta’sirlash vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Ingliz va yapon tillarida bu borada o‘ziga xos tizimga ega bo‘lib, inkor affikslarning ishlatalishi semantik va grammatik jihatdan farqlanadi. Ushbu maqolada ingliz va yapon tillarida inkor yasovchi affikslarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Bu tahlil ularning o‘xhash va farqli jihatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, natijalari tilshunoslar, tarjimonlar va xorijiy til o‘rganuvchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Ingliz tilida inkor affikslari prefiks va suffiks shaklida keladi va so‘zning teskari ma’nosini hosil qiladi. Ular asosan ot, sifat va ba’zan fe’llarga qo‘shiladi.

Ingliz tilidagi inkor affikslari jadvali

| Qo‘shimcha | Turi | Asl so‘z-inkor shakli | Ma’nosi |
|------------|---------|-----------------------|--------------------|
| Un- | Prefiks | Happy-unhappy | Baxtli-baxtsiz |
| In- | Prefiks | Correct-incorrect | To‘g‘ri-noto‘g‘ri |
| Im- | Prefiks | Possible-impossible | Mumkin-mumkin emas |
| Il- | Prefiks | Legal-illegal | Qonuniy-noqonuniy |



| | | | |
|-------|---------|--------------------|------------------------------|
| Ir- | Prefiks | Regular-irregular | Muntazam-nomuntazam |
| Dis- | Prefiks | Agree-disagree | Rozi bo‘lmoq-rozi bo‘lmaslik |
| Non- | Prefiks | Fiction-nonfiction | Badiiy-badiiy bo‘lmagan |
| -less | Suffiks | Care-careless | E’tibor-e’tiborsiz |
| -free | Suffiks | Sugar-sugar-free | Shakar-shakarsiz [1] |

Yapon tilida ham inkor yasovchi qo‘shimchalar prefiks va suffiks shaklida keladi. Ular so‘zga qo‘shilib, teskari ma’no yoki yo‘qlikni bildiradi. Ingliz tilidan farqli ravishda, yapon tilida inkor affikslari faqat sifat va otlarda emas, fe’llarda ham faol ishlatiladi.

Yapon tilidagi inkor affikslari jadvali

| Qo‘chimcha | Turi | Asl so‘z-inkor shakli | Ma’nosi |
|------------|---------|-------------------------------|--------------------|
| 不 (fu-) | Prefiks | 可能 (kanō)- 不可能 (fukanō) | Mumkin-mumkin emas |
| 無 (mu-) | Prefiks | 意味 (imi)- 無意味 (muimi) | Ma’no-ma’nosiz |
| 非 (hi-) | Prefiks | 公式 (kōshiki)- 非公式 (hikōshiki) | Rasmiy-norasmiy |
| -ない (-nai) | Suffiks | 食べる (taberu)- 食べない (tabenai) | Yeyish-yemayman |
| -ず (-zu) | Suffiks | 言う (iu)- 言わず (iwazu) | Aytmoq-aytmay[2-3] |

Yapon tilidagi inkor qo‘shimchalarini chuqurroq o‘rganish uchun Natsuko Tsujimuraning "An Introduction to Japanese Linguistics" (2013)[4] asari muhim akademik manba hisoblanadi. Ushbu kitob yapon tilining morfologik va sintaktik



tuzilishini batafsil yoritib, inkor shakllarining hosil bo‘lishi va ularning semantik jihatlari haqida tushunchalar beradi. Yapon tilining negatsiya tizimini kengroq anglash uchun ushbu manba asosiy nazariy yo‘nalishlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Yapon va ingliz tillari morfologik tuzilishi jihatidan farqlansa-da, ushbu tillarda inkor affikslarining qo‘llanilishi o‘zaro muayyan o‘xshashliklarga ega. Bu o‘xshashliklar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Prefiksal inkor tizimi

Har ikkala tilda ham inkor ma’nosini ifodalash uchun so‘z oldidan qo‘shimcha (prefiks) qo‘shish usuli mavjud.

Ingliz tilida: un- (unhappy – baxtsiz), in- (incomplete – to‘liq bo‘lmagan), dis- (dishonest – insofsiz).

Yapon tilida: fu- (不安 [fuan] – bezovta), mi- (未完成 [mikansei] – tugallanmagan).

2. Suffiksal inkor tizimi

Har ikkala tilda ham ba’zi inkor shakllari so‘z oxiriga suffiks sifatida qo‘shiladi.

Ingliz tilida: -less (endless – cheksiz, careless – e’tiborsiz).

Yapon tilida: -nai (知らない [shiranai] – bilmaydi), -zu (言わず [iwazu] – aytmay).

3. Turli so‘z turkumlariga ta’siri

Inkor affikslarining fe’l, sifat va otlarga bog‘lanish imkoniyati mavjud.

Ingliz tilida: unhappy (sifat), disorder (ot), disagree (fe’l).

Yapon tilida: fuan (不安 – ot), shiranai (知らない – sifat-fe’l), mikansei (未完成 – ot).

4. Ma’nodagi universallik

Har ikkala til ham inkor qo‘shimchalarini qo‘llash orqali "mavjud emaslik", "teskari ma’no", "to‘liq bo‘lmaganlik" kabi tushunchalarni ifodalaydi. Masalan:

Ingliz tilida: incomplete – tugallanmagan

Yapon tilida: mikansei (未完成) – tugallanmagan



Ushbu o‘xshashliklar shuni ko‘rsatadiki, inkor affikslarining asosiy vazifasi har ikkala tilda ham bir-biriga yaqin bo‘lib, ular semantik jihatdan o‘zaro mos keladi. Biroq, har ikkala tilning grammatik tizimidagi farqlar tufayli inkor affikslarining qo‘llanilishi ba’zi jihatlarda o‘ziga xoslik kasb etadi.

Yuqorida yapon va ingliz tillaridagi inkor affikslarining o‘xshash jihatlari yoritildi. Biroq, ushbu ikki til morfologik va grammatik tizimi jihatidan tubdan farq qilgani sababli, inkor affikslarining ishlatalishi va tuzilishida ham sezilarli tafovutlar mavjud. Ushbu farqlar quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

1. Prefiks va suffikslarning nisbati

Ingliz tilida inkor affikslarining aksariyati prefiks shaklida keladi (un-, in-, dis-), faqat ayrimlari suffiks shaklida ishlataladi (-less).

Yapon tilida esa inkor yasovchi affikslar ko‘proq suffiks sifatida keladi (-nai, -zu), prefiks shaklidagi inkor affikslar esa asosan sifat va otlarga ta’sir qiladi (fu-, hi-).

2. Grammatik tuzilishdagi farqlar

Ingliz tilida inkor qo‘sishimchalari odatda asosiy so‘z shaklini o‘zgartirmaydi (e.g., happy → unhappy).

Yapon tilida, ayniqsa fe’llarda, inkor shaklni hosil qilish uchun butun fe’l morfologik jihatdan o‘zgaradi. Masalan: iku (行く – boradi) → ikanai (行かない – bormaydi), taberu (食べる – yeydi) → tabenai (食べない – yemaydi)

3. Inkor shakllarining grammatik moslashuvchanlig

Ingliz tilida inkor qo‘sishimchalari so‘z turkumlarini deyarli o‘zgartirmaydi (happy → unhappy hali ham sifat).

Yapon tilida esa inkor shakllar grammatik o‘zgarishga uchraydi. Masalan, “nai” qo‘sishchasi sifat so‘z turkumiga kiradi, shuning uchun u sifatlarning grammatik moslashuviga ta’sir qiladi (e.g., shiranai hito 知らない人 – bilmaydigan odam).

4. Inkorning darajasi va ma’nosи

Ingliz tilida inkor qo‘sishimchalari odatda so‘zning shunchaki teskarisini bildiradi (honest → dishonest – halol emas).



Yapon tilida inkor affikslari ba'zan inkor darajasiga yoki noaniqlikka ta'sir qiladi. Masalan, fu- prefaksi bilan yasalgan so'zlar ba'zan kuchsizroq inkor ma'nosini anglatishi mumkin: fushizen (不自然 – tabiiy emas, lekin to'liq rad etish emas, balki biroz g'ayritabiiylik).

5. So'z yasalish tizimidagi o'ziga xosliklar

Ingliz tilida yangi so'zlarni yasash uchun inkor affikslaridan erkin foydalanish mumkin (kind → unkind, logical → illogical).

Yapon tilida esa yangi so'zlar yasashda inkor affikslari cheklangan bo'lib, ular faqat mavjud leksemalar bilan birikadi. Masalan, fu- prefaksi faqat ba'zi sifat va otlar bilan ishlatiladi, har qanday sifatga qo'shilavermaydi.

Yapon va ingliz tillaridagi inkor affikslarning qiyosiy jadvali

| Inkor affiksi | Yapon tili (misol) | Ingliz tili (misol) | Izoh |
|------------------|--------------------------------------|----------------------------|--|
| fu- (不) | 不可能 (fukanou) – imkonsiz | Impossible (imkonsiz) | "Im-“ prefaksi bilan o'xshash |
| hi- (非) | 非常 (hijou) – favqulodda, odatiy emas | Abnormal (odatiy emas) | "ab-“ yoki "non-“ prefikslari bilan o'xshash |
| mu- (無) | 無力 (muryoku) – kuchsiz | Powerless (kuchsiz) | "-less" suffiksi bilan o'xshash |
| -nai (ない) | しない (shinai) – qilmaydi | Do not (qilmaydi) | Ingliz tilidagi yordamchi fe'l orqali inkorga mos keladi |
| -zu (ず) | 食べず (tabezu) – yemay | Without eating (yemay) | "without" + gerund shakliga o'xshash |
| mi- (未) | 未完成 (mikansei) – tugallanmagan | Unfinished (tugallanmagan) | "un-“ prefaksi bilan o'xshash. |



| | | | |
|-----------|----------------------------------|---|------------------------------------|
| bu- (無) | 不足 (busoku) – yetishmovchilik | Insufficient (yetarli emas) | "in-" prefiksi bilan o‘xhash. |
| an- (安) | 安心 (anshin) – xavotirsiz | Carefree (xavotirsiz) | "-free" suffiksi bilan ifodalanadi |
| hyou- (非) | 非実 (hyoujitsu) – haqiqat emas | Unreal (haqiqat emas) | "un-" prefiksi bilan o‘xhash |
| go- (誤) | 誤解 (gokai) – noto‘g‘ri tushuncha | misunderstanding noto‘g‘ri tushunish | "mis-" prefiksi bilan o‘xhash |

Semantik nuqtayi nazardan, yapon va ingliz tillaridagi inkor affikslari bir qancha umumiylklarga ega:

1. Inkor ma’nosini kuchaytirish

Yapon va ingliz tillaridagi inkor affikslar har ikkala tilda ham biror narsa yo‘qligini, mavjud emasligini yoki normal holatga zidligini ifodalaydi.

Masalan: yaponcha: 無意味 (muimi) – ma’nosiz

Inglizcha: meaningless – ma’nosiz

2. O‘xhash semantik toifalar

Har ikkala tilda inkor affikslari quyidagi ma’nolarni ifodalash uchun ishlataladi:

Mavjud emaslik / yetishmovchilik:

無力 (muryoku) – kuchsiz → powerless

Noto‘g‘rilik / xatolik:

誤解 (gokai) – noto‘g‘ri tushuncha → misunderstanding

Bajarilmagan harakat / tugallanmagan holat:

未完成 (mikansei) – tugallanmagan → unfinished

3. Tildagi asosiy vazifasi – qarama-qarshilik yaratish

Har ikkala tilda inkor affikslar mavjud so‘zga qarama-qarshi ma’no beradi:

Yaponcha: 正常 (seijou) – normal → 異常 (ijou) – g‘ayritabiiy

Inglizcha: normal → abnormal

Semantika jihatidan farqlari



1. Inkorning grammatik va semantik chegaralari

Yapon tilida inkor affikslari faqat aniqlangan so‘zlarga qo‘shiladi, yangi so‘z yaratish unchalik keng tarqalmaydi.

Ingliz tilida esa inkor affikslaridan foydalanib yangi so‘zlar oson hosil qilinadi.

Masalan, possible → impossible kabi yapon tilida ishlatilmaydigan so‘z o‘zgarishlari ingliz tilida keng tarqalgan.

2. Rasmiy va norasmiy inkor yasalishi

Yapon tilida rasmiy nutqda ko‘proq "fu-, hi-, mu-" prefikslari ishlatiladi, oddiy nutqda esa "-nai" yoki "-zu" inkor shakllari qo‘llanadi.

Ingliz tilida esa har ikkala holatda inkor affikslar ishlatilaveradi.

3. Yapon tilida irodaviy inkor ko‘proq grammatik shakllar bilan ifodalanadi

Yapon tilida fe’l bilan inkor bildirish uchun "-nai" yoki "-zu" shakllari ishlatiladi:

食べる (taberu) – yeyish → 食べない (tabenai) – yemayman

Ingliz tilida esa bu fe’l oldidan "do not" yoki "does not" bilan ifodalanadi:

eat → do not eat [5-6]

Umuman olganda, maqolada ingliz va yapon tillarida inkor yasovchi affikslarning morfologik va semantik jihatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikkala tilda ham negatsiya maxsus affikslar yordamida amalga oshiriladi, biroq ularning qo‘llanish doirasi va grammatik xususiyatlari farqlanadi. Ingliz tilida un-, in-, dis- prefikslari va -less suffaksi orqali sifat va otlarning ma’nosini inkor qilinadi (unhappy – baxtsiz, careless – e’tiborsiz, disadvantage – kamchilik). Yapon tilida esa fu-, hi-, mu-, go-, bu- kabi prefikslar inkor ma’nosini hosil qiladi (fumei – noma’lum, mujitsu – asossiz, hikōka – noqonuniy). Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz tilidagi inkor affikslari universalroq va keng qo‘llanilsa, yapon tilida ular odatda sino-yapon leksemalarida ishlatiladi. Bundan tashqari, yapon tilida grammatik negatsiya shakllari keng tarqalgan bo‘lib, u fe’l negatsiyasida namoyon bo‘ladi (yomenai – o‘qiy olmayman, shiranai – bilmayman). Shunday qilib, har ikkala til inkor yasashda o‘ziga xos tizimga ega



bo‘lib, ularning morfologik va semantik farqlari lingvistik xususiyatlari bilan izohlanadi. Bu esa tarjima jarayonida va til o‘rganishda e’tiborga olish kerak bo‘lgan muhim omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. In-Academy. Ingliz tilidagi negativ ma’no hosil qiluvchi prefikslar // In-Academy Journal. – 2025. – T. 3, №1. – S. 45-60. – URL: <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/download/12105/8615/8685> (data obrashcheniya: 20.03.2025).
2. IMABI. Negative Prefixes [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: <https://imabi.org/negative-prefixes> (data obrashcheniya: 22.03.2025).
3. TOFUGU. Japanese Verb Negative Plain ない Form [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: <https://www.tofugu.com/japanese-grammar/verb-negative-nai-form> (data obrashcheniya: 22.03.2025).
4. Tsujimura, N. An Introduction to Japanese Linguistics [Text]. – 3rd ed. – Wiley-Blackwell, 2013. – 416 p.
5. Matsumoto, Y. (1997). "Japanese Negation in a Comparative Perspective."
6. Shibatani, Masayoshi. (1990). The Languages of Japan. Cambridge University Press.